



**DINIY BAG‘RIKENGLIK MASALASI: HUQUQIY VA ISLOM
MANBAALARIDA**

Sultonova Durdon Shuxratilla qizi

O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi

“Islamshunoslik” mutaxassisligi 2-kurs magistri

Po‘latova Dildora Aziz qizi

O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi

“Islamshunoslik” ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada diniy bag‘rikenglik masalasi huquqiy va islam manbalarida qanday yoritilganligi tahlil qilinadi. Diniy bag‘rikenglik, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashda muhim omillardan biri bo‘lib, uning huquqiy asoslari xalqaro va milliy qonunchilikda mustahkamlab qo‘yilgan. BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va din erkinligiga oid xalqaro konvensiyalar diniy bag‘rikenglik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Maqolada islam manbalarida, xususan, Qur‘on oyatlari va Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning hadislarida diniy bag‘rikenglikka berilgan e’tibor, islam dinida boshqa din vakillari bilan totuvlikda yashash, ular bilan adolatli munosabatda bo‘lish, majburlashdan voz kechish tamoyillari, payg‘ambarimizning Madina konstitutsiyasi misolida diniy bag‘rikenglik amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: diniy bag‘rikenglik, islam manbaları, Qur‘on, hadis, huquqiy asoslar, din erkinligi, inson huquqlari, totuvlik.

Diniy bag‘rikenglik g‘oyasi muayyan jamiyatda, butun dunyoda turli din va mazhabga e’tiqod qiladigan xalqlar, odamlar o‘rtasida do‘stona aloqalarni o‘rnatish, ularning kuchi va iste’dodini bunyodkorlik ishlariga safarbar etishga



xizmat qiladi. Dinlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, vijdon erkinligi kabi tushunchalar o'zaro uzviy bog'liqdir¹. Vijdon erkinligi masalasi ijtimoiy hayotda har doim muhim va murakkab hodisa bo'lib kelgan. Binobarin, uning zamirida har bir insonning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar yotadi. Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, uning barkamolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois bu masalaning ijtimoiy hayotdagi o'rni va bajaradigan vazifalari g'oyat muhim. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustavidan tortib barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, hamma mamlakatlarning konstitutsiya va qonunlarida vijdon erkinligi o'z ifodasini topgan. 1948 yil 10- dekabrda qabul qilingan "Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi"ga muvofiq har bir inson fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o'z dini yoki e'tiqodini o'zgartirish erkinligini, o'z dini yoki e'tiqodiga o'zicha shuningdek, boshqalar bilan birgalikda amal qilish kafolatini, ibodat qilishda va diniy marosimlarda yakka tartibda yoki odamlar orasida birga qatnashish erkinligini o'z ochiga oladi. Xususan, ushbu normativ hujjatda: "Har bir inson biror bir kamsitishlarsiz, irqi, tili, jinsi, dini, siyosiy qarashlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishidan, moddiy ahvoli, qaysi tabaqaga mansubligi va boshqa holatlardan qat'iy nazar mazkur Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquqlar va erkinliklar sohibi bo'lishi kerak", - deyilgan.

Dinlararo totuvlik jamiyatda tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Diniy bag'rikenglik g'oyasi xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. XV asr boshlarida Temur saroyida bo'lgan Kastiliya elchisining guvohlik berishicha, Temur Samarqandda turli din vakillarini yigadi, ularga iltifot ko'rsatadi hamda xristian diniga e'tiqod qiluvchi mehmonlarning turli

¹ Российская социологическая энциклопедия. – М.
Наука 1998. – С.278.



ehtiyojlarini bajarish uchun alohida mas’ul shaxs tayinlaydi. Ular bilan do’stona aloqalami mustahkamlashni tayinlaydi. O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida “O’zbekiston xalqini millatidan qat’iy nazar O’zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi”, deb aniq belgilab qo’yilgan. Mustaqillik sharofati bilan 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydigan O’zbekistonda turli din, millat va elat vakillari farovon yashashi uchun qulay sharoitlar yaratilgan bo’lib, islom, xristianlik, yahudiylik, bahoi jamoalari va krishnani anglash jamiyatni, bular bilan birgalikda ulaming turli oqimlari va yo’nalishlari vakillari tinch, osoyishta va farovon hayot kechirib kelmoqda. Mustaqillik sharoitida etnik munosobatlar va din sohasida olib borilayotgan izchil va qat’iy siyosat tufayli mamlakatimizda millatlararo totuvlik va konfessiyalararo hamkorlik qaror topdi. Dinlararo totuvlik jamiyatda tinchlik va barqarorlikning kafolati bo’lib xizmat qiladi.

Ayni paytda O’zbekiston Respublikasida jami **2276 ta** diniy tashkilot va **16 ta** diniy konfessiya faoliyat yuritib kelmoqda. Shulardan **2093** tasi musulmon tashkiloti, **166 ta** xristian tashkiloti, **8 ta** yahudiy jamoasi, **6 ta** Baxoiylik jamiyatni, **1 ta** krishnachilar jamiyatni va **1 ta** budda ibodatxonasi, shuningdek, O’zbekiston konfessiyalararo Bibliya jamiyatni ham faoliyat ko’rsatmoqda².

O’zbekistonda tom ma’noda diniy bag’rikenglikning yuksak an’analariiga amal qilinayotgani jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilmoqda. Tolerantlik, millatlararo va dinlararo bag’rikenglikning mazmun-mohiyati, ularning jamiyat hayoti uchun zarur ekanligi, tolerantlikning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati hamda ushbu g’oyani yosh avlodda shakllantirish masalalari haqidagi har tomonlama ilmiy asoslangan xulosalar O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ma’ruzalarida aks etgan³.

² <https://strategy.uz/index.php?news=1014&lang=uz>

³ 2017 yil 15-iyun kuni Toshkent shahrida “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash, muqaddas dinimizning cofigini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so’zlagan nutqi.



Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, “Bugun mana shunday xavfli - tahlikali, o'ta notinch bir davrdajahon moliyaviy inqirozi hali-beri davom etayotgan bir paytda el- yurtimiz nimaiki natijalarni qo'lga kiritmasin, bulaming barchasi yurtimizda tobora mustahkam bo'lib borayotgan tinchlik va osudalik, millatlar, dinlar va fuqarolararo totuvlik va ahillik, bir-birimizga hurmat va ehtirom hisobidan desak, o'ylaymanki, hech qanday xato bo'lmaydi”.

Islomning bag'rikengligini biz payg'ambar a.s.ning shaxsiy namunalarida to'liq va ravshan korishimiz mumkin. Zero, umuman risolatning maqsadi, asosiy vazifasi odamzotning bu dunyodagi hayotini yengillatib berish, oxiratda esa abadiy rohat makonidan orin olishiga yordam berishdir. Shuning uchun Qur'oni Karimning uslubiga qarasak, o'qiganimizda ba'zan mo'minlarning qalbini junbushga keltiruvchi, ularning diqqatlarini muhim bir masalaga qaratuvchi xitob bilan boshlangan oyati karimalarni ko'p uchratamiz. Bu oyatlarda “Ey iymon keltirganlar!” degan buyuk xitob bilan boshlanadi Demak, bu xitob bilan boshlagan oyatlarda aynan mo'min-musulmonlargategishli masalalar kelgan boladi. Ammo Qur'oni Karimning qolgan barcha oyatlari umuminsoniy qadriyatlarni o'zida jamlaydi.

O'z davrining buyuk insoni bo'lgan Amir Temur e'tiqod va ma'naviyatning katta ahamiyatini to'g'ri idrok etgan. Sharafiddin Ali Yazdiy Sohibqironni haqli ravishda e'tiqodi komil inson sifatida ta'riflaydi. Eng muhimi, Amir Temur “Ahli sunna val-jamoa” e'tiqodiga sodiq, diniy

<http://uza.uz/oz/politics/vatanimiz-taqdiri-va-kelazhagi-yo'lida-yanada-amzhi-at-b-lib--15-06-2017>; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz/oz/documents/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-oliy-22-12-2017>; ; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Afg'oniston bo'yicha "Tinchlik jarayoni,xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusida o'tkazilgan xalqaro konferensiyadagi nutqi; . <http://uza.uz/oz/documents/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-af-o-27-03-2018&month02&year=2018&clear-cache-Y&ELEMENT-CODE-politics>. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. <http://uza.uz/oz/documents/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>.



aqidaparastlikka qat’iy qarshi bo‘Igan, islom dinini mutaassiblikdan holi, erkin tushungan⁴. Uning komil e’tiqodi boshqa dirlarni rad etish hisobiga bo‘lman va shu jihatdan ham, u nafaqat o‘z asri, balki hozirgi zamon kishisi uchun ham namunadir. Diniy bag‘rikenglik turli din vakillari e’tiqodidagi mavjud aqidaviy farqlardan qat’iy nazar, ularning yonma-yon, o‘zaro tinch-totuv yashashini anglatadi. Har kim o‘z e’tiqodiga amal qilishda erkin bo‘lgani holda bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini e’tirof etmog‘i lozim. O‘zbekiston diniy bag‘rikenglik va murosa borasida nafaqat MDH davlatlari, balki butun dunyoga namuna bolmoqda. Bu haqda dunyo miqyosida katta obro‘ va nufuzga ega insonlar ham yurtimizga ziyyoratlari vaqtida ta’kidlab otmoqdalar. Albatta, xalqimizga xos bu xislat bir zumda paydo bolgan emas, balki uzoq tarixiy asoslariga egadir.

Barcha rivojlangan davlatlar demokratiya, insonparvarlik va dunyoviylik tamoyillariga amal qiladi. Ularda vijdon erkinligi huquqiy kafolatlangan bo‘lib, tolerantlik (bag‘rikenglik) hal qiluvchi tamoyil sifatida e’tirof etiladi.

Hozirda muqaddas dinimiz nomidan o‘zlarining turli g‘arazli maqsadlarini amalga oshirmoqchi bo‘layotganlarning asosiy maqsadi jamiyatda parokandalik, xalqlar va millatlar o‘rtasida nizo keltirib chiqarish, tinchlik va osoyishtalikka rahna solish va shunga o‘xshash ko‘plab salbiy oqibatlarga olib keluvchi harakatlardan iborat. Bu orqali ular turli tabiiy boyliklar zahiralariga ega bo‘lgan davlatlarni qaram qilib olishni niyat qilgani hech kimga sir emas. Hayotning o‘zi buni yaqqol ko‘rsatib turibdi. Shuning uchun muqaddas dinimizning pokiza nomini pok holda saqlash, uning tinchlikparvar va ma’rifatparvar mohiyatini ochib berish har bir musulmonning muqaddas burchi ekanini unutmasligimiz lozim. Dinlararo totuvlik turli din vakillariga umumiy ravnaq va farovonlik yo‘lida birlashish imkonini beradi. Bu holat axloqiy tarbiyada ham bir qator afzalliklarga ega bo‘lib, jamiyatning ma’naviy holatiga ijobiy ta’sir

⁴ SH.A.Yazdiy.Zafarnoma-.:Sharq nashriyot matbaa konsern bosh tahririyati,.-Toshkent. 1997.



ko‘rsatadi hamda keng ommaning o‘z-o‘zini anglashini oshirishga qaratilgan faol tarbiyaviy jarayonni rivojlantiradi⁵.

Shuni xulosa qilish mumkinki, din zamonaviy jamiyatda ma’naviyatning shakllanishida katta rol o‘ynaydi. Yuksak axloq va ma’naviyatli jamiyat insoniyatni botiniy o‘zligini takomillashtirish va borliq kamolotiga, ilmiy taraqqiyot sari yetaklaydi. Shuning uchun ham har bir sivilizatsiyalashgan davlatda bo‘lgani kabi ochiq fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat barpo etish yo‘lidan borayotgan respublikamizda ham dinlararo totuvlikni ta’minlashning ishonchli mexanizmi bo‘lib xizmat qilayotgan e’tiqod erkinligini himoya qilishning mustahkam huquqiy asoslari yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT RO‘YXATI

1. O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. <http://uza.uz/oz/documents/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleysi-20-09-2017>.
2. I.Hosilmurodov.Tolerantlik g‘oyasi va uning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni. – Jizzax, 2019– B. 63
3. Российская социологическая энциклопедия. – М. Наука 1998. –C.278
4. <https://moturidiy.uz/oz/news/518>
5. <https://strategy.uz/index.php?news=1014&lang=uz>

⁵ <https://moturidiy.uz/oz/news/518>